

**O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA TURG‘UN  
O‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI (O‘ZBEK-  
QORAQALPOQ TILLARIGA TARJIMA ASARLARI MISOLIDA)**

*I.Kazakov*

*f.f.n, dotsent, Qoraqalpoq davlat universiteti*

*D.Kuramboeva*

*Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillarida turg‘un o‘xshatishlarning lingvokulturologik talqinidagi asarlar tahliliga to‘xtalangan.*

Turg‘un o‘xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o‘xshatish yetalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tilda tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi.

Tildagi o‘xshatishlarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg‘un o‘xshatishlarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo‘lishini, ular ko‘p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo‘llanish natijasi sifatida turg‘unlashib, so‘zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, o‘xshatish yetalonining, ya‘ni o‘xshatish asosidagi obrazning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qat‘iy bog‘liq bo‘lishini ta‘kidlaydi.

Lingvokulturologiyani ko‘proq turg‘un o‘xshatishlar qiziqtiradi. Negaki, turg‘un o‘xshatishlar milliy ong jumbog‘ini yechishga imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblanadi, dunyoni o‘ziga xos milliy tarzda ko‘rish o‘xshatish semantikasida aks yetadi.

Lingvokulturologiya sohasi bo‘yicha tilshunoslar bildirgan fikrlarga e‘tibor qaratilsa, keyingi yillarda uning mustahkam poydevorga ega bo‘lib borayotganligi guvohi bo‘lamiz: «Lingvokulturologiya tilda va diskursda o‘z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o‘rganadi. U, birinchi navbatda, muayyan

madaniyatning mif, afsona, urf- odat, an'ana, udum, tamoyil, ramz kabilarni tadqiq etadi». O'zbek tilshunosligida D.Ashurova lingvokulturologiyaning vazifasi xususida fikr bildirib, shunday deydi: «Lingvokulturologiyaning vazifalaridan biri – metodologik shart-sharoitlarni aniqlashtirish, tadqiqotlarning konseptual qonun-qoidalari hamda madaniyat nuqtai nazaridan ajratib olingan til birliklarini (lingvokulturemalar) tizimga solish va tasniflash muammolarini ishlab chiqish hisoblanadi».

Lingvist N.D.Arutyunova qayd qilishicha, «Lingvokulturologiyaning vazifasi til birliklarining shu til bilan bog'liq madaniyat «kodlar» iga munosabati asosida tushuniladigan madaniy qiymatni ochish va talqin qilishdir . Tilda madaniy xususiyatga ega birlik sifatida lingvokulturologik konsept (yoki lingvokulturema) ob'ekt qilib olinadi.. V.Vorobyovaga ko'ra, «Lingvokulturema sathlararo va sohalararo majmuaviy hodisa, uning shaklini lisoniy belgi, mazmunini esa lisoniy ma'noda mujassamlashgan madaniy mazmun tashkil etadi.

Lingvokulturema tadqiqotchi madaniy xususiyatni ifoda etuvchi lisoniy vositalar mazmuniga ko'proq e'tibor qaratadi». Lingvist I.G.Olshanskiy lingvokulturemani tavsiflab shunday degan edi: «Lingvokulturema sifatida madaniy mag'izni yaqqol ifodalaydigan va u bo'rtib turadigan so'zlar – jonivor, o'simlik, shaxs nomlari va, asosan, ularning metaforik ko'chma ma'nolari, maqol, matal, iboralar, faqat bir tilgagina xos bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi leksika, tilning uslubiy, etnik, sotsial, gender xoslangan ifodalari, mifologik mazmunga ega lisoniy birliklari, urf-odat, ritual va marosim, nutqiy axloq va odob yaqqol namoyon bo'ladigan til ifodalari tekshiriladi». Umuman, V.V.Vorobyovning ko'rsatishicha, «Lingvokulturologiya – sintezlovchi kompleks ilm sohasi bo'lib, u madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlashuvlarni o'rganadi va bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me'yorlar va qadriyatlar) ga qaratilgan tizimli metodlaryordamida aks ettiradi».

Zamonaviy leksika fan va texnologiya hamda iqtisodiyot sohalarining rivojlanishi bilan, ayniqsa, tez sur'atlar bilan ko'payadi. Bugungi kunda maishiy leksikaning so'zlashuv tilida va hatto badiiy asarlarda ham juda ko'plab qo'llanayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bular, ayniqsa, kundalik ishlatadigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechak nomlari bilan bog'liq.

O'zbek va qoraqalpoq tillariga bunday leksemalarning o'zlashishi yoki tilning ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelayotgan bunday atamalar so'zlashuv tilida juda faol bo'lsa ham hanuz o'z izohini yoki muqobilini topib adabiy tilga kiritilgani yo'q. Maqolada shu kabi masalalarga to'xtalinib, ular misollar yordamida izohlanib berilgan. Maishiy va axborot-kommunikatsiya sohalarida keng qo'llanilayotgan bu leksemalar xalqqa tushunarli va sodda qilib izohlab o'tilgan. Misollarda keltirilgan bu leksemalar ikkala tilda ham birday qo'llanilib, faqat ayrim jihatlari bilangina ma'nosida o'zgarish yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Maqolada keltirilgan misollar vaqtli matbuot va jurnalistikaga doir materiallar asosida yig'ilgan.

***Nildey aynimaq- nildek aynimoq*** — qoraqalpoq tilida shaxsga nisbatan "Nildey aynimaq" // "Nildek aynimoq" o'xshatishi go'llaniladi. Uning zamirida Misr davlatidagi Nil daryosi to'g'risidagi tushuncha mavjud. Qoraqalpoq folklorida uchraydigan o'sha o'xshatishni quyidagicha izohlash mumkin, ya'ni arab xalq afsonalarining dalolat berishicha, Nil daryosi ertalab tip-tiniq, tush paytida qip-qizil loy aralash, tushdan keyin ko'm-ko'k, kechqurun va tunda esa qop-qora bo'lib oqadigan daryo ekan. Bu daryo o'zining ana shunday o'zgaruvchanligi, har xil tusga kirib oqishi bilan jahon xalqlarini lol qoldirgan.

***Qorday oppoq- qarday appaq*** – o'zbek va qoraqalpoq xalqlarida soqolga nisbatan qordek oppoq //qarday appaq o'xshatishining go'llanilishi o'sha tavsiflanayotgan kishi haqida qandaydir o'zgacha tasavvurotni paydo etadi. Ayniqsa, ushbu o'xshatishning nuroniy chollarga nisbatan ishlatilishida o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlar yashiringan. Tahlildagi o'xshatish orqali hayotning barcha mashaqqatlariga bardosh

berib, uning o'nqir-cho'nqir so'qmoqlarida ancha zahmatlar chekib, bu yo'lda, hattoki, soqoligicha oppoq tusga kirgan nuroniy otaxonlar qiyofasi gavdalanadi

**Qurtdek kemirmoq** - o'zbek xalqida "qurtdek kemirmoq" o'xshatishi, asosan, inson qalbida yuz berayotgan hissiyotni tasvirlashda asqotsa, quyidagi matnda u ayrim salbiy shaxslar tabiatini ochishda go'llanilganligi ko'rinadi: Shin muhabbet, bul dúnyanin ustuni. Aldawshilar bul dinyanin sútinine tusken jegi qurt. Chin muhabbat - dunyoning ustuni. Aldoqchilar bu dunyoning ustunini kemirayotgan qurtga o'xshaydi

**Iyttey shabalanip betimnen aladi**- yozuvchi T.Qayipbergenov tomonidan qo'llanilgan "iytteyshabalanip betimnen aladi" o'xshatishi o'zbek tiliga xuddi asliyatdagi kabi, ya'ni "itday yumma talamoq" deb muvofiq tarzda tarjima qilingan bo'lib, bunda muayyan harakatning davomiylik kasb etishi, muttasil takrorlanib turishi mazmuni aks etgan. Shuni ham aytilish lozimki, qoragalpoq tiliga oid manbada keltirilishicha, **shabalaniw** - "itning tovushini baland qilib ketma-ket ravishda urishi" ma'nosini ifodalaydi- *Kelinshegim jaqsi. Lekin, geyde dytewir nárse ushin iyttey shabalanp betimnen aladi, qonlarga kóp ret masqara qildi, - deydi kuyewi. -Yarshi-yu, biroq ba'zida arzimagan sabab bilan itday yumma talaydi, qo'shnilarim oldida sharmanda qiladi, - debdi kuyovi.*

**Awzina suw toltirg'anday**- qoraqalpoq xalqi orasida inson nutqiy faolivatini obrazli tarzda ifodalashda salbiy munosabatning ustuvorlik kasb etishi "awzina suw toltirg'anday" o'xshatishi orqali ko'rsatiladi. Bu o'rinda mum tishlagandek jim o'tirish, gapirmaslikning ham salbiylikka moyilligi aks etadi: *Bul gáplerden keyin hamme awzina suw toltirg'anday úndemey qaliw bilay tursin, birewdinartina birew jastrin, keyin sheginiw baslanp, jiynalغانlar arasinda natisinik g'awg'a kóterilipti//Bu gaplardan keyin hamma og'ziga talqon solgandek jim qolibdi. Biri ikkinchisining panasiga yashirinish, bexavotirroq joy qidirish, ortga chekinish boshlanib, to's-to'polon bo'lib ketibdi (120-bet).* Xullas, bu misollarda qoragalpoq tilidagi "awzina suw toltirg'anday" o'xshatishi o'zbek tiliga "og'ziga talqon solgandek" tarzida tarjima gilingan va ma'no mukammalligi ta'minlangan.

Xullas, lingvokulturologiya jonli milliy tilda namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganadigan sohadir. O'zbek va qoraqalpoq lingvokulturologik birliklar talqini orqali har ikki tilshunoslikda tillararo madaniyatlararo xususiylik va umumiylik belgilari tadqiq sahnasiga chiqadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. K.I.Rozmamatovich: "O'zbek va Qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik birliklar talqini" 2023
2. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Fil.fan.diss. avtoref. -Toshkent,1999. 34-bet
3. Yeshbaev J. Qaraqalpaq tilini qisqasha frazeologiyaliq sozligi. -Nokis, 1985. 42- bet
4. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tilini frazeologizmler sozligi. - Nokis,2018. 72-bet.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилинингизоҳли фразеологик луғати. -Тошкент, 1978. 93-бет.